

O'quvchilarga asar haqida qisqacha ma'lumot beriladi:

"Boburnoma" – Boburning tarixiy asaridir. Asarda Bobur hayotining barcha voqealari, uning harbiy yurishlari tasvirlangan.

Rivoyat matnidan foydalanib, gaplarni to'ldiriladi.

Umarshayx Mirzo o'rnidan turib katta-katta qalin **kitoblarga** ko'z yugurtirdi. Ular **Abu Rayhon Beruniy, Ibn Sino, Ahmad Farg'oniy, Arastu, Pifagor, Ahmad Yassaviy**ning devonlari ekanini ko'rib yengil tortdi. Zahiriddin Muhammad Boburning ota va onasining ismlarini yoziladi.

Qo'shimcha ma'lumot sifatida Zahiriddin Muhammad Boburning ijodidan parcha o'qib beriladi va muhokama qilinadi:

Har kimki vafo qilsa, vafo topqusidur,

Har kimki jafo qilsa, jafo topqusidur.

Yaxshi kishi ko'rmag'ay yomonlig' hargiz,

Har kimki yomon bo'lsa, jazo topqusidur.

3. Darsni yakunlash va baholash:

-Bugun darsda Zahiriddin Muhammad Bobur haqida nimalarni bilib oldik?

 **Uyga vazifa:** Hikoyani o'qing mazmunini so'zlab bering. Bobur haqida qo'shimcha ma'lumotlarni topib yozing.

16-mavzu: Qatag'on qurbonlari xotirasi

Ta'limiy maqsad: o'quvchilarni Zahro Hasanovanning "Manguga muhrlanganlar yodi" hikoya mazmuni bilan tanishtirishyu

Tarbiyaviy maqsad: jadid bobolarmiz haqida ma'lumot berish.

Rivojlantiruvchi maqsad: xulosa va tahlil ko'nikmalarini rivojlantirish.

O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi:

Dars turi: yangi bilim beruvchi

Dars metodi: savol-javob, aqliy hujum, kichik guruhlarda ishlash.

Dars jihozi: mavzuga mos rasmlar, tarqatmalar

Darsning blok chizmasi:

1. Kirish qismi (tashkiliy qism va o'tilganlarni takrorlash):

- O'quvchilar yangi kun bilan qutlanadi.
- Mavzu nomi e'lon qilinadi.
- Tashkiliy savollar beriladi.
- Mavzuga qiziqtirish: o'quvchilar 3 guruhga bo'lib olinadi.

So'zlarni o'z o'rniga qo'ying va jumlani o'qing.

1-guruh uchun:

bizning	ajdodlarni	burchimiz	o'rganmoq
---------	------------	-----------	-----------

2-guruh uchun:

adolat	yengadi	emas	adovat
--------	---------	------	--------

3-guruh uchun:

allomalar	yashab	Vatanimizda	o'tgan
-----------	--------	-------------	--------

- O'tilgan mavzuni takrorlash: hikoya mazmunini yuzasidan suhbatlashiladi. Bobur haqida qo'shimcha ma'lumotlar so'raladi.

2. Darsning asosiy qismi:

☒ **Amaliy topshiriq.** Rasmda tasvirlangan ajdodlarimizni ayting.

? Muhokama uchun quyidagi savollar tavsiya etiladi:

1. Rasmda kimlarni ko'ryapsiz?
2. Ularning qaysi tomonlari sizga buni aniqlashga yordam berdi?

Mavzuni tushuntirish. “Aqliy hujum”metodi. Sarlavhani o‘qing. O‘ylab ko‘ring, muallif bu orqali nima demoqchi?

O‘quvchilarning fikri tinglanadi va to‘ldiriladi.

Matn ustida ishlash. Muallif haqida qisqacha ma’lumot berish.



Zahro Hasanova 1962- yili Toshkent shahrining Labzak dahasida tug‘ilgan. “Zukko Alifbo”, “Kutilmagan sovg‘a”, “Topishmoq va tez aytishlar”, “Salom, maktab”, “Ko‘zmunchog‘im” nomi bilan kitob holida turli nashriyotlarda chop etildi.

Zahro Hasanovaning “ Manguga muhrlanganlar yodi” hikoyasi o‘quvchilarga navbatma-navbat o‘qitiladi.

? Matn yuzasidan savollarga javob beriladi.

1. “Shahidlar xotirasi” majmuasi qayerda joylashgan?
2. “Qatag‘on qurbonlari xotirasi” muzeyi devorlarida kimlarning portreti osilgan?
3. Vatanparvar deganda nimani tushunasiz?
4. Nima uchun ularning nomi xotiramizda mangu yashaydi?

Lug‘at ishi:

qatag‘on–yo‘q qilmoq

qurbon–biror sabab bilan hayotdan ko‘z yummoq.

shahid–haqqoniyat yo‘lida jonini fido qilgan odam.

jabr-u jafo–zulm,azob.

jadid–yangilik tarafdori

ong-u shuur– aql-idrok

mangu – abadiy, umrbod.


 **Mashq daftari bilan ishlash.** Jadvaldagi ma’lumotlardan foydalanib, shifrlangan so‘zni toping. Siz maktablar ochgan va ko‘plab darsliklar yozgan ma’rifatparvar shoir, jurnalist, olim kim ekanligini bilib olasiz. (Abdulla Avloniy)

“Millat manfaatini o‘ylagan zotlar, sizni unutmaydi aslo avlodlar!”

Shiori ostida berilgan allomalar haqida ma’lumotlar o‘qiladi.

Darslikdagi ma’lumotlarga qo‘shimcha tarzda berilishi mumkin:

Abdulhamid Cho‘lpon –
shoir, yozuvchi, tarjimon va
jamoat arbobi.



Abdurauf Fitrat – o‘zbek tarixchisi,
tarjimon, yozuvchi va shoir,
zamonaviy o‘zbek tili va adabiyoti
asoschilaridan biri.

Roman – muayyan shaxs yoki bir necha shaxsning
shakllanish va kamol topish jarayoni, badiiy makon va
zamonda tasvirlangan asar.



3. Darsni yakunlash va baholash:

- Bugun darsda nimalarni bilib oldik?
- Darsda nimalarni bajardik?
- Jadid bobolarimiz haqida qanday ma’lumotga ega bo‘ldingiz?

 **Uyga vazifa:** “Manguga muhrlanganlar yodi” matnini o‘qing va mazmunini so‘zlab bering.

17-mavzu: Mehnatsiz taxt kelmas

Ta’limiy maqsad: o‘quvchilarni Abdulla Avloniyning “Bolari bilan pashsha” hikoyasi mazmuni bilan tanishtirish.

Tarbiyaviy maqsad: mehnat qilishning inson hayotidagi o‘rni haqidagi tushunchalarini boyitish.